

## DUNYOVII VA DINIY BILIMLARNING MA'NAVIY TARBIYADAGI UYG'UNLIGI

Usmonxodjayeva Umida Xasan qizi

O'zbekiston jahon tillari Universiteti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan o'zgarishlar har bir sohada, shu jumladan diniy va dunyoviy qadriyatlarda ham o'z aksini topdi. Va ushbu maqolada bag'rikenglik g'oyasiga tayangan holda milliy va diniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish hamda insonning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularning ruhiyatida insoniy fazilatlarni yaratishish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** materialistik(dunyoviy) va ruhiy-ma'naviy(diniy) jihatlar, ilmiy metodologiya, axloqiy kodekslar, ijtimoiy hamkorlik

Diniy va dunyoviy qadriyatlarda bag'rikenglik g'oyasiga tayangan O'zbekiston xilma-xil diniy e'tiqodlarga ega bo'lgan turli millat vakillari bilan hamjihat bo'lib yashab kelayotgan davlatlar sirasiga kiradi. Bu esa ma'naviy tarbiyada diniy hamda dunyoviy bilimlarning ustunligidan dalolat beradi. Dunyoviy va diniy bilimlar ta'lim va tarbiyadagi o'rni ikki asosiy jihatni-materialistik(dunyoviy) va ruhiy-ma'naviy(diniy) jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlar odamga sabr-toqat, bardosh va ijodiy qarashni o'rgatadi, bu esa dunyoviy bilimlar yordamida amalga oshirilgan harakatlar bilan uyg'unlikda hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Dunyoviy bilimlar jamiyatda odamning amaliy hayotini tashkil etish, bilim va ko'nikmalarini o'rganish, kasb tanlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni ta'minlaydi. Diniy bilimlar esa odamning ma'naviy, axloqiy va ruhiy rivojlanishini qo'llab quvvatlaydi, uning hayotga bo'lgan qarashlarni shakllantiradi va jamiyatda tinchlik, adolat va hurmatni ta'minlashga yordam beradi. Ikkala bilim turning ham o'zaro uyg'unligi insonning to'liq va barqaror rivojlanishiga hissa qo'shami, uning hayotdagi maqsadlarni aniq belgilashga va boshqalarga foyda keltiradigan ishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Dunyoviy bilimlarning ta'lim va tarbiyadagi o'rni:

**1. Ilmiy va amaliy tayyorgarlik:** Dunyoviy bilimlar asosan insonning ilmiy, amaliy va ijtimoiy sohalarida rivojlanishini ta'minlaydi. Bu bilimlar tabiiy fanlar (matematika, fizika, biologiya) va ijtimoiy fanlar (tarix, iqtisodiyot, sotsiologiya) va texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Dunyoviy ta'lim, o'z navbatida, talabalarni kasbiy tayyorgarlik, amaliy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, ularning jamiyatda faol va muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

**2. Tanqidiy fikrlash va ilmiy metodologiya:** Dunyoviy bilimlar tanqidiy fikrlashni rivojlaniradi. Va ilmiy metodlar (observatsiya, eksperimeny tahlili) ni tashkil etishga, o'z-o'zini rivojlanirisha, innovatsion fikrlashga va yangi bilimlarni yaratishga yordam beradi.

**3. Jamiyatda faol bo'lish:** Dunyoviy bilimlar insonni jamiyatdagi o'rmini tushunishga,iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltiradi.Hamda bu bilim orqali insonlar ijtimoiyadolat,iqtisodiy barqarorlik,siyosat va boshqaruv kabi sohalarda bilim va ko'nikmaarga ega bo'lishadi

Diniy bilimlar- bu bilimlar din, e'tiqod,axloqiy qadriyatlar,diniy an'analar,tafsirlar va diniy ta'limotlarni o'rganish bilan bog'liq.Diniy bilimlar odamni ruhiy va axloqiy jihatdan tarbiyalashga,uning hayotiy maqsadlari va manzilini tushunishga yordam beradi.Va bu bilimlar nafaqat insonning ruhiy va ma'naviy dunyosini shakllantirishda ,balki ijtimoiy va madaniy tarbiyasida ham kata ahamiyatga ega.Diniy bilimlarning ta'lim va tarbiyadagi o'rni quyidagi jihatlardan iborat:

**1. Axloqiy tarbiya va qadriyatlar:** Diniy bilimlar, odamni axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim vositasidir.Har bir dinning o'ziga xos axloqiy kodeksi bor.Diniy bilimlar bu axloqiy kodekslarni,qadriyatlarni yosh avlodga o'rgatadi va odamlarni yaxshi ishlarni qilishga va axloqiy ma'suliyatni his qilishga undaydi

**2. Ruhiy va ma'naviy rivojlanish:** Diniy ta'lim odamlarga bag'rikenglikni,boshqalarning diniy e'tiqodlariga hurmatni o'rgatadi.Har bir dinning o'z qadriyatlari va unga tayangan tarbiyasi bo'ladi va bu tarbiya orqali insonning ruhiy va ma'naviy rivojlanishi o'sadi.

**3. Jamiyatda ahloqiy me'yordarning saqlanishi:** Diniy bilimlar jamiyatda ahloqiy normalarning saqlanishiga yordam beradi. Diniy ta'limotlar jamiyatdagiadolat, haqiqat va xushmuomala munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Diniy qadriyatlarni o'rgatish orqali yoshlarni jamiyatda axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga undash mumkin. Shunday qilib, diniy bilimlar jamiyatning tinch va barqaror bo'lishiga hissa qo'shadi.

**4. Yaxshi xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlar:** Diniy ta'limda yoshlar o'zlarining xulq-atvorlarini shakllantiradilar. Masalan, ular bir-biriga yordam berishni, boshqalarga hurmat ko'rsatishni, o'z vaqtida yordam so'rashni,adolatni qo'llashni va boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Diniy bilimlar ijtimoiy hamkorlikni rivojlaniradi va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi.

**5. Tinchlik va bag'rikenglikni targ'ib qilish:** Diniy ta'lim insonlarga bag'rikenglikni, boshqalarning diniy e'tiqodlariga hurmatni o'rgatadi. Har bir dinning o'ziga xos o'gitlari bo'lsa-da, umumiy qadriyatlar ham mavjud: boshqalarning huquqlariga hurmat, tinchlik, sevgisi va yordamni taklif qilish. Bu, o'z navbatida, jamiyatda tinchlik, hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**6. Yaxshi fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyat:** Diniy bilimlar odamlarni o'zlarini yaxshilashga, insonlarga foyda keltiradigan ishlarga yo'naltiradi. Odamlarni o'zining jamiyatdagi o'rmini, mas'uliyatini va hayotdagi maqsadini anglashga undaydi. Bu orqali yoshlarni ishlarga mas'uliyat bilan yondashishga, atrofdagilarga g'amxo'rlik qilishga va jamiyat uchun foydali bo'lishga targ'ib qiladi.

**7. Din va ilmiy bilimlar uyg'unligi:** Diniy bilimlar, bir tomondan, insonning axloqiy va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, boshqa tomondan esa, ilmiy va dunyoviy bilimlar bilan uyg'unlikda bo'lishi mumkin. Insonlar diniy bilimlar orqali

yaxshilikka intilishadi, shuningdek, ilmiy bilimlarni o'rganish orqali dunyoqarashlarini kengaytiradilar. Bu ikki bilim turi bir-birini to'ldiradi va insonni to'liq rivojlantirishga yordam beradi.

Diniy bilimlar ta'lif va tarbiyada nafaqat axloqiy, balki ruhiy va ma'naviy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ular insonni yuksak qadriyatlar, yaxshi xulq-atvor, sabr-toqat va boshqalarga hurmat qilishga undaydi. Diniy bilimlarning jamiyatda va individning hayotida o'rni beqiyos, chunki ular insonga nafaqat o'zligini tushunish, balki boshqalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida ko'p masalalarni tushunishda "dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'limganligini ham ta'kidlash zarurdir", degan edi, Darhaqiqat, dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham mavjud. U din va diniy turmush tarzi bilan yonma-yon yashab rivojlanib kelgan. Yoshlarda dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo'nalishda bo'lishi, diniy dunyoqarash esa respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak. Chunki ilmiy-falsafiy dunyoqarashda diniy va milliy ekstremizm yo'liga o'ziga xos to'siq yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan komil inson masalasini ham ilmiy-falsafiy mazmunda tushunish, ta'lim-tarbiya Ishini ham shu asosga qurish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda aytish kerakki, bu sohadagi ham nazariy, ham amaliy ish komil inson haqidagi barcha ijobiliy fikrlar va qarashlarning eng foydali tomonlaridan, shu jumladan, islom qadriyatlaridan ham foydalanishga asoslanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 1.Ismoilov.Z "Tarbiyaviy ishlar metodikasi"
2. 2.Musurmonova.O "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi"
3. 3.Tuxtayev.O.X "Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni o'rni"
4. 4.I.A.Karimov "o'zbekiston XXI asr bo'sag'asida"